

---

## Elektr-energiyasi ta'minotidagi muammolar barataraf qilinmoqda



### **Elektr-energiyasi ta'minotidagi muammolar barataraf qilinmoqda**

“Ish asbobing soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lar” – deb bejiz aytishmagan dono xalqimiz. Bugun tumaniimizda elektr-energiyasi bilan bog'liq muammo va kamchiliklar aynan eng zamonaviy asbob-uskuna va dastgohlar orqali bartaraf qilinmoqda. Xabaringiz bor, tumanimizga 3 milliard so'mdan ortiq elektr qurilmalari va asbob-uskunalari olib kelindi.

Tumanga soha mutaxassislarning jalb qilinishi Sux va Suxliklar xalqimizning doimiy e'tiborida ekanligidan dalolat. Bugun tumanimizda Sux tuman elektr tarmoqlari korxonasi ishchi-xodimlari bilan birgalikda viloyatimizning Farg'ona, Oltiariq, Quva, Qo'shtepa tumanlari va Farg'ona viloyati ETRX ishchi-xodim va malakali mutaxassislari sohadagi muammolarni yechish va kamchiliklarni bartaraf etilishidagi say-harakatlarini alohida e'tirof etish lozim.



Barcha ishlar tuzilgan maxsus rejaga asosan olib borilmoqda. Sux tuman ETK bosh muhandisi Orifjon Raupovning soʻzlariga koʻra: -“Rejaga asosan bugun va ertaga viloyatimizning shahar va tumanlaridan kelgan kasbdoshlarimiz tumanimizning Chashma, Hushyor, Mulgon, Toshqura, Saribozorcha mahallalarida qurilish-montaj ishlarini olib borishadi. Bu mahallalarda temir-beton tayanchlari oʻrnatish, 0,4 kVli SIP2 rusumdagi kabel tarmogʻini tortish, 10 kVli havo tarmogʻida 10 kVli temir-beton tayanchlari oʻrnatish ishlari olib boriladi. Sux tumani elektr tarmoqlari ishchi-xodimlari Lenburg mahalla fuqarolar yigʻini aholisi tomonidan tushgan murojaatlarni bartaraf etishga jalb qilingan”.

Avval xabar berganimizdek, tumanga 75 nafar muhandis-texniklar, elektromontyor va tajribali mutaxassislar ham safarbar etilgan. Ishlar tuzilgan 6ta brigada tomonidan olib borilmoqda.

**Sux tumani hokimligi Axborot xizmati**

2020-06-12 16:18:13